



O‘z zamonasining buyuk shoiri,
olim, tarixchi, tilchi, adabiyot
nazariyotchisi, hattot, mutafakkir va
davlat arbobi Nizomiddin Mir
Alisher Navoiy tavalludining 583
yilligi munosabati bilan "Muqarrabi
hazrati sultoniy"
nomli kitobxonlarga
tavsiyanoma

Tuzuvchi: Axborot bibliografiya xizmat rahbari M.A.Raximova



**Nizomiddin Mir Alisher Navoiy
tavalludining 583 yilligi munosabati
bilan
"Muqarrabi hazrati sultoniy"
kitobxonlarga tavsyanoma.**

Buyuk alloma Alisher Navoiyning 583 yilligiga bag`ishlangan ushbu
kitobxonlarga eslatma allomaning hayoti va ijodiga qiziquvchilar va o'rganish
uchun tavsya etiladi.

Tarjimai hol

Alisher Navoiy (1441-1501) - buyuk shoir va mutafakkir, davlat arbobi. To‘liq ismi Nizomiddin Mir Alisher. Navoiy tahallusi ostida chig‘atoy (eki o‘zbek tili) hamda forsiyda (fors tilidagi asarlarida) ijod qilgan. G‘arbda chig‘atoy adabiyoti hisoblanmish o‘zbek adabiyotining eng yirik namoyondasi. Umuman olganda, butun turkiy xalqlari orasida u kabi yirik shaxs yo‘qdir. Navoiy yosligidan Xurosonning (Transoksanija) bo‘lajak hukmdori Husayn Boyqaro bilan (1469-1506) do‘sit bo‘lgan. 10-12 yoshidan she’rlar yozishni boshlagan. Navoiyning zamondoshi bo‘lmish tarixchi Xondamir (1473(76) - 1534) qoldirgan ma’lumotlarga ko‘ra, mashhur o‘zbek shoiri Lutfiy (1369-1465) qarigan chog‘larida bolakay Navoiy bilan ko‘rishadi va uning she’riy iqtidorini yuqori baholaydi. Hayoti davomida Navoiy musulmon Sharqining turli mamlakatlarida bo‘ladi, o‘z davrining taniqli shaxslari bilan ko‘rishadi. O‘zining she’riy mahoratini oshiradi. 1464-1465 yillar Navoiy ijodining shinavandalari uning ilk she’riy to‘plamini (devonlari) tayyorlashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o’sha davrlardayoq Navoiy mashhur shoir bo‘lib ulgurgan. 1469 yilgacha temuriylar o‘rtasidagi o‘zaro ichki nizolar tufayli Navoiy o‘zining ona shahri Hirotdan uzoqda yashashga majbur bo‘lgan.

1469 yil temuriy Husayn Boyqaro Hirotni egallaydi va Xuroson hukmdori bo‘ladi. Shu vaqtidan e’tiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiyni davlat muhrdori etib tayinlaydi, 1472 yil vazir bo‘ladi. Egallagan mansabi orqali u mamlakatning madaniy va ilmiy taraqqiyotida katta yordam ko‘rsatadi. Katta mulk egasiga aylanadi.

1480 yil Hirot shahrida va boshqa viloyatlarda o‘z hisobidan bir nechta madrasa, 40 ta rabot (yo‘lovchilar uchun bekat), 17 ta masjid, 10 ta so‘fiylar turarjoyi (xonaqoh), 9 ta hammom, 9 ta ko‘prik va boshqalarini qurdiradi. Biroq, saroy amaldorlariga Navoiyning bu kabi faoliyati yoqmaydi va turli fitnalar orqali Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini buzishadi.

Shunday qilib, Navoiy egallab turgan mansabidan ozod etilib, 1487 yil Astroboqd shahriga hukmdor sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgachgina, X. Boyqaro unga Hirotgaga qaytib, hokimiyatda mansabga ega bo‘lishiga ruhsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini (“mukarrabi xazrati sultani”) taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bog‘liq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi. Shu vaqtidan Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi va u ko‘proq ijod bilan shug‘ullanadi. U yaratgan asarlarining katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning so‘nggi hukmronlik yillarida (1370-1506) yashab ijod qilgan.

Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. 1490-1501 yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan.

Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60 000 ga yaqin misrani tashkil etadi. 1483-1485 yillar Navoiy o‘z ichiga besh dostonni olgan “Hamsa” asarini yaratgan: “Hayrat ul-Abror” (“Yaxshi kishilariing hayratlanishi”), “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”).

Navoiyning “Hamsa”si mazkur janrda yaratilgan turkiy tildagi birinchi asar hisoblanadi. U - turkiy tilida ham bu kabi yirik ko‘lamdagi asar yaratilishi mumkinligini isbotlab berdi. Haqiqatan ham, Navoiy chig‘atoy tilida (eski o‘zbek tili) ham fors-tojik adabiyoti bilan bir darajada turuvchi asar yaratish mumkinligini isbotlashga harakat qilgan. Va u o‘zining besh hazinasi orqali buning uddasidan chiqqan. Navoiy musulmon Sharqining, deyarli barcha janrlarida o‘z qalamini sinab ko‘radi va o‘z ovozi, o‘z uslubi borligini ko‘rsata oladi. Sharq adabiyotida “Layli va Majnun” mavzusida 120 dan ziyod doston yaratilgan. Navoiy ham shaxsiy yondashuvi ila ushbu mavzuda doston yozadi. Dostonda Layli va Majnun o‘rtasidagi sevgi bayon qilinadi. O‘z ifodasida Navoiy odamiylik va so‘fiylik sevgisini sharhlashga harakat qilgan. O‘zining so‘fiylik qarashlarini Navoiy, shuningdek, “Farxod va Shirin”, “Hayrat ul-Abror” dostonlarida ham ifodalagan. Uning dostonlarida so‘fiylik mavzusi umumfalsafiy darajaga ko‘tarilgan. Mazkur dostonlarda, bir vaqtning o‘zida shoirning insonparvarlik dunyo qarashlari orqali dunyoning dolzarb muammolari qo‘yiladi. “Hamsa”dagi boshqa ikki dostonida - “Sab’ai sayyor” (“Yetti sayyora”), “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”) hukmdor bilan bog‘liq muammolar (Qayumov A. Saddi Iskandariy. Toshkent, 1980 yil, o‘zbek tilida) yetakchi o‘ringa chiqadi.

Ma’lum bo‘lishicha, Navoiy temuriylar saroyiga yaqin bo‘lib, do‘sti va podshoh Husayn Boyqaroga ta’sir ko‘rsata olgan. Shu sababli, Navoiy bu dostonlarida H. Boyqaroga qaratilgan g‘oyalarni ifodalab o‘tgan: dunyoning va shoh taxtining o‘zgaruvchanligi; hukmdorning o‘z xalqi oldidagi majburiyatları... Hamsanafislik an’analariiga nisbatan, Navoiy o‘zining ijtimoiy va siyosiy qat’iyati va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Abd ar-Rahmon Jomiy (1414-1492) Navoiyning “Hamsa”sini o‘qib, unga juda yuqori baho bergen. O‘zining ijtimoiy va badiiy mohiyatiga binoan, Navoiyning “Hamsa”si O‘rta Osiyoda yuqori o‘ringa ega bo‘lgan. U ko‘p marotaba qayta ko‘chirilgan. Hozirgi kunda “Hamsa” yoki uning dostonlarining katta ro‘yhati mavjud. Birgina Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti fondining o‘zida XV-XX asrlarda qayta ko‘chirilgan 166 ta qo‘lyozma bo‘lib, ular to‘liq “Hamsa” asari yoki uning alohida dostonlarini tashkil etadi. Shulardan 84 tasi to‘liq doston ko‘rinishidadir. Navoiy “Hamsa”sining miqdori va keng tarqalishi uni O‘rta Osiyo intellektual hayotida alohida o‘rin egallaganligini ko‘rsatadi. Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘sghan; ilm, fan, san’at

rivojiga homiylik qilgan № tinchlik va totuvlik doim hukmron surishiga doim harakat qilgan. Navoiy forsiy tilida yozilgan o‘z she’rlarini “Devoni Foniy” nomi ostida jamlagan. U fors shoirlari bilan ham bellashmoqchi bo‘lgan. To‘plam shaklida chiqarilgan g‘azallarini o‘zini hisoblasak, ular 3150 donani tashkil etadi. Navoiy yozgan she’rlarining miqdoriga ko‘ra peshqadam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, Navoiy fors tilidagi qasidalarini jamlab, “Sittai zaruriya” (“Olti zaruriyat”) va “Fusuli arbaa” (“Yilning to‘rt fasli”) nomli ikki to‘plam yaratadi.

Navoiy o‘z she’riyati orqali o‘zbek (chig‘atoy) adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. Navoiyning nazmi mavzusining kengligi hamda janrining xilma-xilligi bo‘yicha undan oldingi o‘zbek adabiyotini ortda qoldiradi. U nazmda dostonlardagi kabi dunyoviy va diniy, so‘fiylikning dolzarb masalalarini ifoda qilgan. Navoiyning diniy asarlari ham nashr qilingan: “Arbain” (“Qirq ruboiy”), “Munadjat” (“Allohga iltijo”).

So‘fiy prozaik asari “Nasaim al-muhabbat” (“Muhabbat shabadasi”)ning to‘liqroq matni nashr qilingan bo‘lib, unda 750 ta so‘fiy shayhlar haqida ma‘lumot keltirilgan. Navoiy ilmiy asarlar ham yaratgan. Ular qatoriga fors va turkiy tillar qiyosi keltirilgan asarlarni kiritish mumkin: “Muhokamat al-lug‘atayn” (“Ikki til bahsi”); aruz nazariyasiga oid (she’r yozish hajmi) - “Mezon al-avzan” (“Hajm mezoni”), muammo janri nazariyasiga oid - (jumboq) “Mufradat”. Bundan tashqari, u tarixiy mavzularda risolalar yaratgan: “Tarixi muluki Adjam” (“Eron shohlari tarixi”), “Tarixi anbiya va xukama” (“Payg‘ambarlar va donolar tarixi”). Badiiy maktublarini “Munshaat” to‘plamiga jamlagan. Uning shoh asarlari: Abd Ar-Rahmon Jomiy hayoti haqida - “Xamsat al-mutaxayyirin”, 1494, “Xalati Sayyid Xasan Ardasher” (“Sayyid Xasan Ardasher hayoti”), “Xalati Pahlavon Muhammad” (“Pahlavon Muhammad hayoti”)lardan iborat. Alisher Navoiyning so‘nggi asari “Mahbub ul-qulub” (1500). Unda shoirning so‘nggi ijtimoiy va siyosiy qarashlari yoritilgan.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs bo‘la turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qo‘shgan; ilm, fan, san’at rivojiga homiylik qilgan; tinchlik va totuvlik hukmron surishiga doim harakat qilgan.

Ko‘rib turganimizdek, Navoiy merosi mavzu va janrlari bo‘yicha turlidir. Uning asarlari XV asrdan hozirgi kungacha o‘zbek adabiyoti rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda. Asrlar davomida uning asarlari taqlid va ilhom manbai bo‘lib hisoblanib kelgan

Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati

Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz.

I.Karimov

O'zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma'rifatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tavallud topgan. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon kishilaridan va Temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo'lган.U go'dakligidanoq she'riyatga va ilm olishga qiziqqan, farzandiga ta'lim-tarbiya berish uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qilgan.Alisher yoshligidanok sharq adabiyotiga, fors she'riyatiga qiziqqan. Uning tog'alari Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylar o'sha davrning taniqli shoirlari bo'lган. Alisherlar xonadonida tez-tez she'riy suhbatlar bo'lar, cholg'uchilar sozi, hofizlarning xonishi doimo yangrab turgan. Bunday muhit Alisherga ijobiy ta'sir qiladi.Alisher badiiy asarlarni o'qish va o'rganish bilan kifoyalanib qolmay, o'zi ham she'rlar yoza boshladи. U 10-12 yoshlaridayoq ilk she'rlari bilan mashhur bo'lib, katta san'atkor va olimlarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Alisherning iste'dodidan mammun bo'lган mavlono Lutfiy (Xondamirning xabar berishicha) uning:

*Orazin yopqoch ko'zimdan sochilur har lahza yosh,
Bo'yakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...*

matla'li g'azalini tinglab, "Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga almashar edim", - degan.Navoiy mantiq, falsafa, riyoziyot va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. Firdavsiy, Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Atoiy, Lutfiy va boshqa yozuvchilarning asarlarini qunt bilan o'rgana boshlaydi. U o'zbek va fors-tojik tillarida bir qancha she'rlar bitib, ikki til bilimdoni sifatida shuhrat qozonadi. O'zbek tilidagi she'rlarida "Navoiy" ("navo" - kuy so'zidan), fors-tojik tilidagi she'rlarida esa asosan "Foniy" ("fano" - vaqtincha, o'tkinchi so'zidan) va ba'zan "Navoiy" taxallusini qo'llaydi.Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Navoiyning bilimi va qobiliyatidan mammun bo'lган Jomiy uni ham shogird, ham farzand deb biladi.Navoiy yirik madaniy markazlardan biri Samarqandga kelib, mashhur olim Fazlulloh Abu Lays madrasasida o'qib, turli fanlarga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirdi. Samarqandning ko'zga ko'ringan shoirlari - Shayxim Suhaymiy, Mirzobek, Mavlono Xovariy, Mir Qarshiy, Harimi Qalandar, muammogo'y Uloyi Shoshiy, olim Mavlono Muhammad Olim va boshqalar bilan hamsuhbat bo'ldi va do'stlashdi.

Alisher Navoiyning Samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyati yuqori baholanib, unga "Chig'atoy amiri" unvoni berilgan.Xondamirning qayd qilishicha, 80-yillar davomida Alisher Navoiy o'z mablag'lari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, 40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 ko'prik, 20 ga yaqin hovuz qurgan yoki ta'mirlattirgan. Ular orasida Hirotdag'i "Ixlosiya", "Nizomiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoysiа" tibgohi, Qur'on tilovat qiluvchilarga mo'ljallangan "Dorud-huffoz" binosi, Marvdagi "Xusraviya" madrasasi, Mashhaddagi "Dorul-huffoz" xayriya binosi va boshqa noyob me'morlik yodgorliklari bor. Shuningdek, ulug' amirning kutubxonasiда 70 dan ortiq xattot

va musavvirlar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni badiiy bezash bilan band bo'lganlar. Navoiy dastlab lirik she'rлari bilan keng shuhrat qozona boshlaydi. U o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarini, ya'ni "Hiloliya" qasidasini Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlagan bo'lsa, fors tilidagi birinchi yirik asari "Tuxfat ul-afkor" (1476) qasidasini Jomiyga bag'ishlagan edi. 1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o'zining o'zbek tilida yozgan she'rлaridan iborat ilk devoni - "Badoye' ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi")ni tuzdi. Alisher Navoiyda o'zbek tilida "Xamsa" - besh doston yaratish maqsadi yoshlidan bo'lgan. Ushbu maqsadini 1483-1485 yillarda amalga oshiradi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Navoiy shu yillar orasida ikkinchi devoni - "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar")ni yaratdi. Alisher Navoiy 1485 yili mashhur "Nazm ul-javohir" ("Hikmatli so'zlar manzumasi") asarini yozadi, bunda birinchi xalifalikdan bo'lmish Hazrat Alining 266 ta hikmatli gapi ruboiy tarona shaklida bayon etilgan. Navoiy "Tarixi anbiyo va hukamo" (Payg'ambarlar va tabiblar tarixi: din va tibbiyot tarixidagi buyuk shaxslar hayotidan umumtarixiy risola. 1488), "Siroj ul-muslimiyn" ("Musulmonlar chirog'i". 1488) kabi asarlarini ham yaratgan. Alisher Navoiy 1491-1492 yillardan boshlab turkiy tilda yozilgan barcha she'rлaridan yangi yig`ma devon tuzishga kirishadi va bu ish 1498-1499 yillarda nihoyasiga yetadi. Devonning umumiyy nomi "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") bo'lib, 4 qismdan iborat bo'lganligi uchun "Chor devon" deb ham atalgan. Devonning birinchi qismi "G'aroyib ussig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari"), ikkinchi qismi "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik davri nodirliklari"), uchinchi qismi "Badoye' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari") va to'rtinchi qismi "Favoyid ul-kibor" ("Keksalik foydalari") deb ataladi. Alisher Navoiyning she'riy dahosi XV asr oxirlariga kelib yana jo'sh uradi. U 1498 yilda "Lison ut-tayr" ("Qushlar tili") falsafiy dostonini, 1499 yilda "Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") nomli ilmiy asarini yaratgan. Navoiy "Lison ut-tayr" dostonini "Xamsa"dan 14 yil keyin yaratgan. Bu asarini shoir "Foni" taxallusi bilan yozgan. Chunki bu davrda uning hayoti keksalikka yuz o'girgan, aniqrog'i, bu dunyosidan ko'proq u dunyosini o'ylay boshlagan edi. Ushbu asar bolaligida sevib o'qigani - Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qushlar tili") dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, "tarjima rasmi bila" yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. "Lison ut-tayr" dostoni bilan Alisher Navoiy o'zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko'tardi va o'zbek adabiy tiliga asos soldi. Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni, uning grammatik mukammalligi, so'zlarga boyligi forsiy til qoida va hadisalariga qiyoslangan holda chuqur hamda aniq misollar orqali tahlil etilgan. Alisher Navoiyning so'nggi buyuk asarlaridan yana biri nasriy pandnomasi yo'sinida yozilgan "Mahbub ul-qulub" ("Qalblar sevgani")dir. U Sharq adabiyoti tarixida Shayx Sa'diyning "Guliston", Kaykovusning "Qobusnoma", Nizomiy Aruzi Samarqandiyning "Chor maqola" kabi asarlar qatorida turadi. 1500 yilning 28 dekabrida Husayn Boyqaro isyon ko'targan o'g'li - Muhammad Husayn bilan sulh tuzib, Hirotg'a qaytar ekan, Alisher Navoiy ham uni kutib olishi lozimligiga ishorat qiladi. Orada 2-3 kunlik

yo'l bor edi. Alisher Navoiy o'zining so'nggi she'rini Poyob rabotida yozgan va undan nusxa ko'chirtirib, kelayotgan Husayn Boyqaroga yuborgan. Uchinchi kuni Alisher Navoiy hukmdor istiqboliga yaqinlashayotganida o'zini yomon his etgan, u bilan ko'rishayotganda hushidan ketib, qaytib o'ziga kelmagan va 1501 yilning 3 yanvarida vafot etadi.Qator shoir va shoiralarimiz Alisher Navoiy. g'azallariga muxammaslar bog'ladilar va qasidalar bitdilar, bobomiz haqida minglab she'rlar yozdilar.

Alisher Navoiy hikmatlari

Yigitlikda yig' ilm mahzani,
Qarillik chog'i xarj qilgll oni.

Ish erur ulkim, o`zi oni qilur,
Hikmat ulkim, ham o`zi oni bilur.

"G`aroyib us- Sig`ar" dan

Komin qilur ermish odamizod xayol,
Naqsh aylar emish kungliga yuz fikri mahol,
Mundin g`ofil qolibki, hayyi mutaol
Kelturgusi tongla aning ollig`a ne hol.

"Navodir ush- shabob" dan

Otashin gul chunki bulbul kuydurur yuz javh ila,
Ne osig` faryodu afg`on birla ming daston anga.

"Farhod va Shirin" dan

Kerak sher oldida ham sheri jangi,
Agar sher o`lmasa,bori palangi.

* * *

Yana bir buki, hech ish hodis o`lmas
Birovga kim, anga bir bois o`lmas

"Sab`ai sayyor" dan

Ko`r bilmas yorug` ekanni quyosh,
Kunduz uchmog`g`arib erur xuffosh

Bum zulmoniy o`ldi pinhoniy,
Ko`p etar oni mehri nuroni.

"Nazim ul- Javohir" dan

So`zdirki, nishon berur o`lukka jondin,
So`zdirki, berur jong`a xabar janonidin,
Insonni so`z ayladi judo hayvonidin,
Bilikim, guhari sharifroq yo`q ondin.

Alisher Navoiy asarlari haqida

1. "Tarixi mulki ajam"-1488 yil
2. "Holoti Sayyid Hasan Ardashev"-1490 yil
3. "Risolai muammo"-1491 yil

4. "Majolis un -nafois"- 1491-93-yil
5. "Xamsat ul-mutahayyirin"-1492-94-yil
6. "Munshoat"-1492-yil
7. "Mezon ul-avzon"-1492-yil
8. "Holoti Pahlovon Muhammad" – 1496-yil
9. "Nasoyim ul-muhabbat"-1496-yil
- 10."Xazoyin ul-maoniy"-1491-1499-yillar
- 11."G`aroyib us-sig`ar"
- 12."Navodir ush- shabbob"
- 13."Badoyi ul-vasat"
- 14."Favoyid ul-kibor"
15. "Devoni Fonyi"-1491-1498 yillar
16. "Lison ut-tayr"- 1498-1499-yillar
- 17."Muhokamat ul-lug`atayin"-1498-1499-yillar
- 18."Mahbub ul-qulub"-1500-yil

Bulardan tashqari, quyidagi diniy-axloqiy asarlarini ham yozgan:

1. "Nazm ul-javohir"-1485-yil
2. "Tarix anbiyo va hukumo"-1488-yil
3. "Siroj ul-muslimin"-1488-yil.

Navoiy nomidagi joy nomlari .

Respublika milliy kutubxonasi
 Respublika milliy bog`i
 Respublika Opera va balet teatri
 Samarqand Davlat Universiteti
 Ko`plab ko`chalar, maktablar,jamoa xo`jaliklari, dam olish
 bog`lari,kutubxonalar,oily o`quv yurtlarida stependiyalar.

Navoiy haqida yaratilgan muhim asarlar.

Oybek "Navoiy" romani.
 Oybek "Guli va Navoiy" dostoni
 Oybek "Alisherning yoshligi" qissasi
 Uyg`un va Izzat Sulton. "Alisher Navoiy" pyesasi.
 Uyg`un va Izzat Sulton. "Alisher Navoiy" film

Alisher Navoiyning nashr qilingan asarlari

- Alisher Navoiy. Xazoyinul-maoniy. -T.: 1959-60;
- Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami (20 jildlik), 1-6 jildlar. -T.: 1987–1992;
- Alisher Navoiy. Asarlar. 6-10 jildlar, -T.: 1963–1968.

- Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (20 jildlik), 7-12 jildlar, Toshkent, 1991–1996;
- Alisher Navoiy. Xamsa (Nashrga tayyorl. R.Shamsiev). -T.: 1960;
- Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nashrga tayyorl., nasriy bayon muallifi G‘afur G‘ulom). – T.: 1956;
- Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ilmiy-tanqidiy tekst (nashr. P.Shamsiev). -T.: 1970;
- Alisher Navoiy. Lisonut-tayr (nasriy bayon muallifi: Sh.Sharirov). – T.: 1984;
- Alisher Navoiy. Lisonut-tayr. – T.: 1991;
- Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. MAT. 17-jild. -T.: Fan, 2001;
- Alisher Navoiy. Munojot (nashrga tayyorl. S.G‘anieva). – T.: Sharq, 1991;
- Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.13. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Xamsatul-mutahayyirin. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Munshaot. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.13. – T.;1967
- Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.12. -T.: 1966;
- Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Mezonul-avzon. Asarlar. O‘n besh tomlik T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.14. – T.;1967;
- Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.15. – T.;1968;
- Alisher Navoiy. Vaqfiya. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.13. -T.: 1967;
- Alisher Navoiy. Devoni Foni. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.5. 1-2 kitob. – T.;1966;
- Alisher Navoiy. Mufradot. Asarlar. O‘n besh tomlik. T.15.- T.;1968

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi “Davlat ilmiy nashryoti” .2005.0-704b.
- 2.Homidiy va boshqalar.O`zbek adabiyoti (Malumotnomasi): Akademik littsey va kasb-hunar kollejlari uchun qo`llanma Mualliflar: Homidiy, O.Nosirov, M.Mamurov.-T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashri.,2003.-104b.
- 3.Ijtimiy tarmoqlardan foydalanildi. arboblar.uz